



JINOYAT PROTSESSIDA DALILLARNI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumayev Firdavs Nusratovich

Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistraturasi talabasi

el.pochta:jumayevfirdavs598@gmail.com

Tel:(88)183-33-02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17759035>

ARTICLE INFO

Received: 11th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Published: 28th November 2025

KEYWORDS

Konstitutsiya, inson
huquqlari, dalillarni baholash,
Jinoyat-protsessual kodeksi,
ishonchlilik, qonuniylik,
nomaqbul dalillar, odil sudlov,
qonun ustuvorligi, sud jarayoni,
aybsizlik prezumpsiyasi, dalillar
majmui

ABSTRACT

Ushbu maqolada jinoyat protsessida dalillarni baholashning mazmuni va uning sud qarorlariga ta'siri yoritiladi. Dalillarni baholash haqiqatni aniqlash, aybsizlik prezumpsiyasini ta'minlash va adolatli sudlovni amalga oshirishda qanday asosiy ahamiyatga ega ekani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, baholash jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar hamda ularning tergov va sud amaliyotidagi o'rni umumlashtirilgan shaklda tahlil qilinadi.

Jinoyat protsessida dalillarni baholash – adolatli va qonuniy qaror qabul qilishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Har qanday jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash, aybsizlik prezumpsiyasini ta'minlash, shuningdek, sud va tergov organlari faoliyatining shaffofligini oshirish aynan dalillarni to'g'ri baholashga bog'liq. Dalillar – bu shunchaki ma'lumotlar to'plami emas, balki ular Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib asosida tekshirilishi, tahlil qilinishi va baholanishi lozim bo'lgan huquqiy manbalardir.

Bugungi kunda jinoyat protsessining rivojlanishi, kriminalistika va ekspertiza sohalarining yangilanishi, texnologik vositalarning keng qo'llanilishi dalillar doirasini yanada boyitmoqda. Shunga mos ravishda, dalillarni baholash jarayoni ham murakkablashib, yanada aniq, ehtiyotkor va asosli yondashuvni talab etmokda. Xususan, elektron ma'lumotlar, audio-video yozuvlar, texnik kuzatuv natijalari kabi dalillarni baholashda ular yaratilgan sanasi, o'zgartirilgan-o'zgartirilmagani, to'plangan tartibi kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli "Jinoyat protsessida dalillarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham doimo dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada dalillarni baholash jarayonining mohiyati, uning asosiy tamoyillari, baholashning amaliy bosqichlari hamda hozirgi zamon jinoyat protsessida uchraydigan o'ziga xos jihatlar tahlil qilinadi.

Jinoyat protsessida dalillarni baholash nimani anglatadi? Bu yerda avval aytib o'tilgan o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Jinoyat protsessida ham baholash ikki funksiyani bajaradi: dalillarni baholaydi va baholash natijasini beradi. Natija esa protsessual harakatlar va hujjatlarda ifodalanadi. Asosiy xususiyat shundaki, dalillarni baholash faqat jinoyat sud ishini

yuritish jarayonida amalga oshiriladi. Shu sababli dalillarni baholashi mumkin bo'lgan maxsus subyektlar doirasi belgilangan[1].

Dastlab "adolat" tushunchasidan foydalanish istagi tug'iladi. Adolat faqat sud tomonidan amalga oshiriladigan, nizoni huquq normalari yordamida hal etishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Agar bu ta'rifni olsak, unda sudgacha bo'lgan bosqichda amalga oshiriladigan barcha faoliyat (unda ham dalillar baholanadi) ushbu tushunchaga kirmaydi. Ammo mazkur ishda baholovchi subyekt aniq belgilangan bo'lgani uchun bunday cheklash qo'llash mumkin. Biroq bu to'liq to'g'ri bo'lmaydi.

Chunki sudga dalillarni baholash faqat adolatni amalga oshirishda emas, balki sudgacha bo'lgan bosqichda ayrim protsessual harakatlarga ruxsat berishda ham yuklatilgan: masalan, tergov harakatlari uchun sanksiya berishda, faqat sud tayinlashi mumkin bo'lgan ehtiyot choralarini qo'llashda, sud tergov vaqtida dalillarni nomaqbul deb topishda yoki boshqa oraliq qarorlar qabul qilishda—bularning barchasida sudya dalillarni baholaydi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi dalillarni baholashda erkin baholash prinsipini belgilaydi. Ya'ni sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi dalillarni o'zlarining ichki ishonchi, ishning barcha holatlari, qonun normalari hamda hayotiy tajriba asosida mustaqil baholaydi. Bu jarayonning murakkabligi shundaki, baholash faqatgina dalilning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash bilan cheklanmaydi; uning ishonchliligi, haqiqiyliigi, manbalarning qonuniyligi, dalil sifatida yaroqliligi va boshqa mezonlar ham chuqur tahlil qilinishi talab qilinadi[2].

Dalillarni baholashning quyidagi prinsiplari mavjud:1) dalillarga baho berishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud faqat qonunga asoslanadi; 2) hech qanday dalilning ahamiyati oldindan belgilab qo'yilmaydi; 3) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud dalillarni baholashda o'zlarining ichki ishonchlariga tayanadilar; 4) ularning ichki ishonchi to'plangan va tekshirilgan dalillar majmuiga berilgan bahoga asoslanadi; 5) har bir dalil aloqadorlik, maqbullik, ishonchlilik nuqtayi nazaridan, to'plangan barcha dalillar majmui esa ishni hal qilish uchun yetarlilik nuqtayi nazaridan baholanmog'i lozim; 6) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning dalillarga baho berishi har tomonlama, to'la va xolisona bo'lishi shart; 7) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud dalillarga vijdonan baho berishlari shart[3]

Mazkur prinsiplardagi asosiy g'oya — baholashning erkin, ammo mas'uliyatli bo'lishi. Erkinlik shundaki, tergovchi yoki sud oldindan belgilangan model bo'yicha dalillarga baho bermaydi, ularni turiga qarab ustuvor yoki noustuvor deb tasniflamaydi. Barcha dalillar teng huquqli, ularning qiymati esa faqat amaliy tahlil jarayonida, to'plangan materiallar majmuasi bilan solishtirilganda aniqlanadi. Shu bilan birga, bu erkinlik o'z-o'zidan cheklanmagan emas — u faqat qonun doirasida ro'y beradi. Baholashning faqat qonunga asoslanishi ularning subyektiv mulohaza yoki tashqi bosimdan holi bo'lishiga xizmat qiladi.

Ichki ishonch (Intuitsiya) tamoyili ushbu tizimning markazida turadi. Lekin bu ishonch oddiy sezgi yoki subyektiv tasavvur emas — u faqat tekshirilgan va mantiqan bog'langan dalillar majmuiga tayangan holda shakllanishi mumkin. Aks holda, ichki ishonch yuridik kategoriya sifatida emas, balki shaxsiy fikr darajasida qolib ketgan bo'lardi. Shu sababli, prinsiplar ichki ishonchni to'plangan dalillar tizimiga bog'lab qo'yadi. Bu esa baholash jarayonida shaffoflik va ob'yektivlikning muhim kafolatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Dalillarning aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi haqidagi talablar esa baholashning mazmuniy yo'nalishini belgilaydi. Bu mezonlar nafaqat har bir dalilni alohida tekshirish, balki ishning butun konstruksiyasini mantiqan shakllantirishga imkon beradi. Amalda kamdan-kam hollarda bitta dalil ishni hal qiladi; ko'pincha dalillar o'zaro uyg'unlashganda, bir-birini to'ldirganda va qarama-qarshiliklardan xoli bo'lganda haqiqiy manzara shakllanadi. Shu bois,

dalillar majmuining yetarliligi haqidagi talab jinoyat protsessida haqiqatga erishishning yagona real yo'li sifatida namoyon bo'ladi.

Xolislik va har tomonlama baholash talabi, mening fikrimcha, ushbu prinsiplardagi eng mas'uliyatli jihatdir. Chunki tergovchi yoki sud faqat ayblov dalillariga emas, himoya tomoni keltirgan materiallarga ham bir xil jiddiylik bilan yondashishi shart. Bu talab bajarilmasa, ichki ishonch ham, qonuniylik ham o'z mazmunini yo'qotadi. Shuning uchun ham xolislik baholashning metodi emas, balki butun jarayonni boshqaruvchi umumiy etik-huquqiy mezondir.

Shunday qilib, mazkur prinsiplarga umumiy nazar tashlaganda, ular jinoyat protsessida adolatni ta'minlashning yagona konseptual tizimini tashkil etishi ayon bo'ladi. Ularning barchasi o'zaro bog'langan: qonuniylik ichki ishonchni cheklaydi, ichki ishonch dalillar majmuiga tayanadi, dalillar majmuining baholanishi esa xolislik va vijdon bilan mustahkamlanadi. Ushbu tamoyillar bir butun bo'lgan taqdirda, dalillarni baholash jarayoni haqiqiy yuridik mazmun kasb etadi va sud adolatining asosiy kafolatiga aylanadi.

Qolaversa, jinoyat protsessidagi ikki muhim tushunchaning — dalillarni baholash va dalillarni tekshirishning o'zaro bog'liqligi juda ahamiyatga molik tushunchalardir. Haqiqatdan ham, dalilni baholash uni tekshirmasdan turib amalga oshirilmaydi. Chunki baholash – bu dalilning qanchalik ishonchli, haqiqiy va ish uchun ahamiyatli ekanini aniqlash jarayoni, tekshirish esa shu dalilning asl mazmuni, kelib chiqishi, to'planish tartibi qanchalik qonuniy ekanini amalda ko'rib chiqishdir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida dalillarni baholash bo'yicha nazariy qoidalar yetarlicha mukammal bo'lsa-da, ularni qo'llash jarayonida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim hollarda tergov bosqichida dalillarni tekshirish yetarli darajada chuqur amalga oshirilmay, ularning faqat tashqi shakliga urg'u berilmoqda. Natijada dalilning ichki mantiqiy bog'liqligi, manbasining ishonchliligi va qonuniyligi yetarlicha tahlil qilinmay qolmoqda.

Amaliy kamchiliklardan yana biri — dalillarni baholashda ayblovga yo'naltirilgan yondashuvning ustun kelishidir. Ya'ni ayrim holatlarda tergovchi va prokuror dalillarni xolis baholashdan ko'ra, mavjud ma'lumotni ayblovni mustahkamlash vositasi sifatida ko'rishga moyillik bildiradi. Bu holat dalillarni baholashda ichki ishonch prinsipining buzilishiga olib keladi va protsessual muvozanatga putur yetkazadi.

Menimcha, bu yerda eng muhim jihat shundaki, baholash ko'proq fikrlash jarayoni bo'lsa, tekshirish amaliy harakatlar majmuasidir. Ya'ni prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki sud faqat mulohaza qilib baho bermaydi; u dalilning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash uchun uni qayta ko'rib chiqadi, qo'shimcha ma'lumot to'playdi, ekspertiza tayinlaydi, guvohlarni so'roq qiladi — bularning barchasi tekshirishning amaliy tomonlari.

Shu bois, dalillarni baholash va tekshirishni alohida tushunchalar sifatida ajratish bilan birga, ularning o'zaro uzviy bog'liqligini e'tirof etish ham juda muhim. Tekshirilmagan dalil baholanishi mumkin emas, baholanmagan dalil esa huquqiy kuchga ega bo'la olmaydi. Bu ikki jarayonning kesishishi jinoyat protsessida adolat va obyektivlikni ta'minlaydi.

Yana bir nuqtaga to'xtalsak: amaldagi tajribada ko'pincha dalillarni tekshirishga yetarli e'tibor qaratilmasa, baholash ham yuzaki bo'lib qoladi. Shu sababli tekshirish jarayonining chuqurligi va to'liqligi baholashning sifatini belgilaydi, deyish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida dalillarni baholash jarayoni oddiy protsessual harakat emas — u butun sud ishining poydevorini tashkil etuvchi fundamental mexanizmdir. Dalillarni baholashning samaradorligi jinoyat ishida haqiqatga erishish,

noqonuniy ayblovlarini oldini olish, shaxsning konstitutsion huquqlarini himoya qilish va eng muhimi, adolatli sudlovning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jinoyat protsessida dalillarni baholash — qonuniylik, xolislik, vijdonlilik, ichki ishonch, mazmuniy tahlil va majmuiy yondashuvning uyg'unlashgan murakkab huquqiy jarayonidir. Ushbu tamoyillar bir-birini to'ldirgan holda jinoyat ishini hal qilishda obyektiv haqiqatga erishish, aybsizlik prezumpsiyasini ta'minlash va sud adolatini to'laqonli ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Mazkur jarayonning to'g'ri tashkil etilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samaradorligini oshiradi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishiga xizmat qiladi hamda zamonaviy jinoyat protsessining sifat darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi deya baralla ayta olamiz.

Shu bois, amaliyotda dalillarni baholash samaradorligini oshirish uchun tergov va sud faoliyatida dalillarni baholash bo'yicha yagona metodik yondashuvni joriy etish, raqamli dalillarni tekshirish va baholashning aniq protsessual standartlarini ishlab chiqish hamda sudyalarda va tergovchilarda uchun ushbu yo'nalishda muntazam malaka oshirish tizimini kuchaytirish zarur. Zero, dalillarni baholashga bo'lgan munosabat — bu nafaqat protsessual texnika masalasi, balki jamiyatda qonun ustuvorligi, adolatga ishonch va inson qadriyatiga munosabatning real ko'rsatkichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar: //Использования литература://Used literature:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent, 2025.
2. Jinoyat-protsessual huquqi. Maxsus qism [Matn]: darslik / A.A. Abdurashidov va boshqalar. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 480 b
3. Tulaganova, G.Z., Bazarova, D.B. Dalillar nazariyasi [Matn]: darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 320 b.
4. lex.uz — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi